

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022

ERNEST XEMINGUEY

(1899-1961)

Chol qushlar va zimlessa, belirin o'sha qoldirg'ochlarga achiqib ketar va qushlar turmushil, qirin-qora va katta kuchli qushlarni hisobga olmayardagi, bizning kuri kechirishimizga qarayardida, ham juda sige. Okean gohisa shu qadar ham berahim bo'tar elan, himo uchun qushlarni manz bi dengiz qoldirg'ochlari singan nozik va shikasta qilib jarayganler. Okean sadoq va zo'zal, urmo u zibo tozakdan shurday shaf-qatsiz bolib ketadi. Uning ustida ozig ilminda charyz urib chonig'is, olib va mangli ovoz bilen bir-birlariga jar belis uchjan su qushlar ungi intillaten bentnoye salib va mohi ko'rnitsi.

"CHOL VA DENGIZ" ASARI



**AVGUST
№43**

Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



CONFERENCES.UZ

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
3-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-3**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-3**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 43-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 17 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. Pirova Shahnoza

O'QUVCHILARGA XIVA XONLIGINING TASHKIL TOPISHINI YORITILISH 7

2. Anvarjon Abdulhayev Bahromjon o'gli

TARIX FANIDA IPT TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH 9

3. Matyoqubova Sohiba Hayitbayevna

XVI-XIX ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI 11

4. Markaboyeva Xolida Sultonbekovna

BUGUNGI TA'LIM, ERTANGI KELAJAK SARI 12

5. Xolliyev Azizbek Go'zalovich

XIX ASRNING OXIRGI CHORAGI – XX ASR BOSHIDA ROSSIYANING TASHQI
SAVDOSI (BUYUK bRITANIYAGA EKSPORT MISOLIDA) 14



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

O'QUVCHILARGA XIVA XONLIGINING TASHKIL TOPISHINI YORITILISH

Pirova Shahnoza

Xorazm viloyati Urganch shahar
5-son maktab tarix o'qituvchisi
telefon:+998995032525

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligining tashkil topishi haqida 8-sinf o'quvchilariga tushuncha berish ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Temuriylar, Shayboniyalar, Xorazm

Temuriylar tasarrufida bo'lgan Xorazm hududini Shayboniyxon 1505 yilda bosib olgan. Shayboniyxon vafoti (1510 yil) dan keyin Xorazm Eron safaviylari qo'l ostiga o'tdi. Ularga qarshi xalq qo'zg'oloni bo'lib, unga Vazir qal'asi qozisi Umar va Baqirg'on qishlog'idan mulla Sayd Hisomiddin boshchilik qildi. Ikki yil davom etgan kurashlar natijasida eroniylar mamlakatdan quvib chiqarilgan va xorazmliklar taklifi bilan 1511 yilda Vazir shahrini egallagan shayboniylardan Elbarsxon Xorazm hukmdori deb tan olingen. Elbarsxon (1511—16) bilan birga Dashti Qipchoqdan Xorazmg'a kelgan xalqlar o'troqlashganlar. Uning davrida xorazmliklar Turkmanistonning janubiy qismi, Eron shimolidagi Saraxs, Orol va Mang'ishloqni egallashgan. Yangi yerlarni Elbarsxon o'g'illari va ukasi, qarindoshlariga bo'lib berishi natijasida mayda hokimliklar paydo bo'lgan. Elbarsxon vafotidan keyin uzlusiz o'zaro nizolar sababli xonlar tez-tez almashib turgan. 16-asrda Xiva xonligini Sulton Hojixon (1516), Husaynqulixon (1516), So'fiyonxon (1516—22), Bujaqaxon (1522—26), Avaneshxon (1526—38), Alixon (1538—47), Akatoyxon (1547—56), Yunusxon (1556—57), Do'stxon (1557—58), Hoji Muhammadxon (1559—1602) lar boshqarganlar. Bu davrda xalq, Elbarsxon avlodlari o'rtafigi o'zaro qirg'inlaridan tashqari Buxoro va Xiva xonligi o'rtafiga urushlar azobini ham tortishga majbur bo'lgan. Buxoroliklar Ubaydullaxon va Abdullaxon II hukmronlik davrlarida (1537—38; 1593; 1595—98) Xorazmg'a hujumlar qilib, qisqa vaqt Xiva xonligini Buxoroga bo'ysundirganlar. Bu urushlar va 16-asrning 70-yillarda Amudaryo o'zanining o'zgarib, Kaspiy dengiziga oqmay qo'yganligi ham Xorazm iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. 17-asr boshlariga kelib, Xorazm taxti uchun bo'lgan sulolaviy kurashlardan so'ng , taxtga o'tirgan Arab Muhammadxon davrida Xiva xonligida davlat parokandaligi o'zining yuqori cho'qquisiga yetgan. Rus kazaklari, qozoqlar va qalmiqlarning talonchilik yurishlari, Arab Muhammadxonning o'g'illari Habash va Elbarslarning otalariga qarshi chiqishlari parokandalikni avj oldirgan. Bu kurashda ularning qo'li baland kelib, otalarini qatl ettirishga erishadilar. Padarkush Elbars va Habash sultonlar (1621—23) akalari Asfandiyor (Isfandiyor, 1623—43) tomonidan taxtdan tushirilib, qatl qilingan. Eron shohi Abbos I homiyligida taxtga chiqqan Asfandiyorxon davrida mamlakat siyosiy hayotidagi keskinlik saqlanib qoldi. Orol bo'yidagi o'zbek qo'ng'irotlari Asfandiyorga bo'ysunmay qo'yishgan. Mamlakatda tarqoqlik va zulm kuchaygan. Bundan foydalangan yirik mulkdorlar Abulg'oziy Bahodirxonni 1643 yilda xon qilib ko'tarishgan. Abulg'oziy Bahodirxon akasi vafotidan keyin 1644 yilda Xiva xonligi taxtiga o'tirgan. U markaziy hokimiyatni mustahkamlab, Buxoro xonligining Chorjo'y, Vardanza, Qorako'l, Karmana atroflariga bir necha marta harbiy yurishlar qildi. Abulg'oziy Bahodirxon 1662 yilda Buxoro xoni Abdulazizzon bilan sulh tuzib, 1663 yilda hokimiyatni o'g'li Anushaxonga topshirgan. Shunga qaramay Xiva qo'shinlari Buxoro, Samarqand, Qarshiga talonchilik yurishlarini davom ettingan. 1685 yilda Xiva qo'shinlari G'ijduvon yaqinida mag'lubiyatga uchragach, Buxoroning Xiva xonligiga ta'siri kuchaygan. Buxoro xoni Subhonqulixon Anushaga qarshi fitna uyuştirib, uning o'g'li Arang Muxammadxonga taxtni egallashga yordam berdi. Lekin uning hukmronligi juda qisqa bo'lgan. 17-asrning oxiri — 18-asr boshlarida 1728 yilda Xivadagi Sherg'ozixon madrasasi qurilishida qullar qo'zg'olon ko'tarib, xon va uning mulozimlarini qatl qilishgan. Shu voqeadan



keyin Xiva xonligida siyosiy o‘yin yana avj olgan. Xiva xonligidagi o‘zaro urushlarda Elbarsxon (1728—39) hokimiyatni qo‘lga kiritgach, ichki nizolarni bostirib, qo‘sni hududlarga bosqinchilik yurishlarini amalga oshirgan. 1740 yilda Eron shohi Nodirshoh Xiva xonligiga bostirib kirib, uni o‘ziga bo‘ysundirgan. 1741 yilda xorazmliklarning qo‘zg‘oloni eroniylar tomonidan bostirilgan. 18-asr o‘rtalaridagi xonlar goh Eron shohlarining xohishi, goh Buxoro hukmdorlarining ta’siri, goh mahalliy aholi qo‘ng‘irot urug‘ining yordami bilan tez-tez almashinib turgan. Xiva xonlari bu davrda Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyidan Turkmaniston hududidagi Kushkagacha bo‘lgan yerkarni boshqargan. 1855 yilda Saraxsni qamal qilish paytida Muhammad Aminxonning halok bo‘lishi mamlakatda parokandalikka sabab bo‘lgan. Abdullaxon (1855—56), Qutlug‘murodxonlar (1856) 6 oydan ko‘p hukmronlik qilmaslaridan o‘ldirilgan. 1856 yilda taxtni Sayd Muhammadxon (1856—64) e16—19-asrlar davomida Xiva xonligi hududlari doimo o‘zgarib turgan. Dastlab xonlik hududi Xorazm vohasidagina joylashgan bo‘lsa, keyinchalik uning chegarasi janubda Eron va Marvgacha, shimolda Ural daryosigacha bo‘lgan yerkarga cho‘zilgan, sharqda Buxoro amirligi, g‘arbda esa Kaspiy dengizi qirg‘oqlarigacha yetgan. Ruslar bosqinidan keyin Amudaryoning chap qirg‘og‘ida 62237,2 km² yer maydoniga ega kichik vassal davlatga aylanib qolgan. Aholisining soni ham doimo o‘zgarib turgan. O‘rtacha 1 mln. kishi atrofida aholi yashagan. Uning ko‘pchiligini o‘zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, kam sonli forslar, arablar, ruslar va boshqalar tashkil qilgan. Xiva xonligi boshqaruv tizimi, asosan, Buxoro va Qo‘qon xonliklaridek bo‘lib, farqi, 19-asr boshlaridan xon huzurida Kengash (Devon) bo‘lgan. Eng yuqori amaldorlardan tashkil topgan kengash vakolati cheklangan. Asosiy qarorlar xon tomonidan qabul qilingan bo‘lsada, amaldorlarning xonlik boshqaruvidagi mavqeい baland edi. Mansab va unvonlar harbiyamuriy, harbiy va diniy toifalarga bo‘lingan. Inoq, otaliq, biy, amir ulumaro, mehtar, qushbegi, beklarbegi, devonbegi va boshqa unvon va mansablar xonlik iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy, harbiy hayotida muhim o‘rin tutgan. Xonlik sud ishlari, asosan, diniy ulamolar qo‘lida bo‘lib, ularning mamlakat hayotida ta’siri kuchli bo‘lgan. Xonlikda davlat tili o‘zbek tili bo‘lib, Buxoro va Qo‘qondan farqli o‘laroq barcha farmonlar, davlat hujjalari faqat o‘zbek tilida yozilgan. 16—18-asrlarda Xiva xonligining ma’muriy jihatdan bo‘linishi viloyat deb atalgan bo‘lsa, 18-asrdan beklik deb atala boshlagan. Dastlab xonlikda 16 ta viloyat, 2 ta noiblik bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik viloyatlar soni 22 taga yetgan. Ularni xon tomonidan tayinlangan hokim va noiqlar boshqargan. Xiva sh. esa xon va bosh vazir tomonidan boshqarilgan. Ijtimoiy hayotda xon va uning amaldorlari va diniy ulamolarning mavqeи yuqori bo‘lib, iqtisodiy hayotning asosini tashkil qiluvchi yer ham, asosan, ular qo‘lida bo‘lgan. Kam yerli va yersiz dehqonlar ulardan ijara ga yer olib ishlaganlar va ularning ahvoli juda og‘ir bo‘lgan. Sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik mamyakat iqtisodida muhim o‘rin tutgani uchun 19-asrda Xiva xonligida 1500 ga yaqin boshlang‘ich maktab va 103 Madrasa mavjud bo‘lgan. Xiva shahrining o‘zida 22 ta Madrasa bo‘lgan. 19-asrda Xiva xonligida adabiyot, tarixnavislik, xattotlik, musiqa san’ati, me’morlik va madaniyatning boshqa sohalarida muayyan yutuqlar qo‘lga kiritilgan. Munis, Ogahiy, Feruz, Komil Xorazmiy, Kamron, Bayoniy, Xisraviy, Murodiy, Rojiy, Mutrib Xonaxarobi, Laffasiylar asarlari o‘zbek adabiyoti rivojida o‘ziga xos o‘ringa ega. Tanbur chizig‘i notasini yaratgan Komil Xorazmiy "Maqomi Feruz Shohiy" asari va "Panjgoh" maqomi bilan o‘zbek millati san’atiga katta hissa qo‘shtan. Abulg‘oziyxon "Shajarayi turk", "Shajarayi tarokima" asarlari bilan Xorazm tarixnavislik maktabini boshlab bergen bo‘lsa, Munis va Ogahiyilar tarixnavislik va tarjimonlik maktabini yaratib, "Firdavs uliqbol", "Zubdat uttavorix", "G‘iyos uddavlat", "Jome ulvoqeoti sultoniy", "Shohid ul iqbol" asarlari bilan tarix sohasini rivojlantirdilar. Bayoniyning "Shajarayi Xorazmshohiy", "Xorazm tarixi" asarlari O‘zbekiston tarixini o‘rganishda asosiy manbalar hisoblanadi. Hozirgi Xiva shahrida saqlanib qolgan qad. me’morlik inshootlari, asosan, xonliklar davrida qurilgan. Bularga Anushaxon hammomi, Sherg‘ozixon madrasasi, Muhammad Aminxon madrasasi, Ko‘hna Ark, Toshxovli, Karvonsaroy, Islomxo‘ja minorasi, Qal’a devori, Nurillaboy saroyi va boshqa kiradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Абулғози Баходирхон. Шажарий турк. -Т.: Чўлпон, 1992
2. Залесов Н. Посольство в Хиву капитана Никифорова в 1841 года. М., 1865.
3. Килевейн Е.Б. Открытие из путешествия в Хиву и некоторые подробности о ханстве во время правления Сеид-Мохаммед Хана, 1856-1860. М., 1861.



TARIX FANIDA IPT TA'LIM METODLARIDAN FOYDALANISH

Anvarjon Abdulhayev Bahromjon o'gli

Namangan viloyati Norin tuman
19-maktab Tarix va tarbiya fani o'qituvchisi
907523393anvarjon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola maktablarda tarix fanini o'qitishda IPT ta'limi metodlaridan foydalanish haqida yozilgan bo'lib u umumta'lim maktablarida qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Ta'lim tarbiya, IPT ta'limi, o'qitish, ma'sulyat, mashg'ulotlar, babs va munozara, ijodiy yondashuv, dars, erkin fikrlash.

Bugungi kun davr talabi yosh avlodni har tomonlama yetuk, jismonan sog'lom, o'qib o'qib o'rgangan fanlarini erkin ifodalab amaliyotga qo'llay oladigan, keng doirada fikrlaydigan qilib tarbiyalashdan iboratdir. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri IPT ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o'qituvchilar dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, babs olib boorish ko'nikmalar shakllanib, rivojlanib boradi. Darslarni o'tishda bugungi kundagi o'quvchilarning qiziqishi, orzulari, imkoniyatlariga katta e'tibor berish lozim. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchining o'zi ham siyosatshunos, ham ruhshunos, ham hozirjavob, san'atkor, ham mohir ustoz bo'la olishi kerak. Bu esa o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda pedagogning yoshlar va hamkasabalar o'rtasida hurmatini oshiradi, xalq oldidagi mas'uliyatini, bo'yniga olgan vazifasini bajarishi uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Darsni o'tishda pedagog quyidagilarga alohida e'tibor berishi lozim.

- Avvalo har bir darsga ijodiy yondashish zarur. Xususan, mashg'ulotlarda babs va munozaralarga mamlakatimiz taraqiyotiga oid dalillar, xalqimizning tarixi, bugungi kuni, davlatimizning olib borayotgan ichki va tashqi siyosati, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, oddiy, hayotdan olingan qiziqarli misollardan foydalanish ijobjiy natija beradi.

- O'quvchi yoshlarning Prezident nutqi va ma'ruzalar, kitoblarida asoslab berilgan ustuvor yo'nalishlar va tamoyillarni chuqur anglab, o'zlash tirib olishlariga erishish, ayniqsa muhim. Albatta, yangi vazifalar, maqsad va g'oyalarni hayotning o'zi ilgari surishi tabiiy. Shunday ekan, bunday yangilanishlarga yoshlarning o'zлari tayyor bo'lishi, uning faol ishtiroychisiga aylanishi lozim.
- Dars – mashg'ulotlarida mavjud muammolar ham atroficha va ishonarli tahlil etilishi lozim. Har bir o'quvchi bunday muammolarning sababini aniq bilib olishiga, jamiyatimiz ularni qadamga – qadam hal etishi xususida o'zi to'g'ri xulosa chiqarib, kelajakka ishonch ko'zi bilan qarashiga erishish ta'lim tizimi xodimlari oldidagi muhim vazifalardandir. O'quvchilar bugungi o'tishda va o'ziga xos qiyinchiliklarning ildizlarini, eski tuzumga xos boqimandalik kayfiyatidan qutilishning oson kechmayotganligini, bundan xolos bo'lish uchun odamlardagi ong va tafakkur o'zgarishiga, ularda o'z imkoniyatlariga bog'liq ekanligini chuqur idrok etishlari lozim.

- Har bir darslarida Vatanimizning boy tarixiy merosiga murojaat qilish orqali mavzularning mohiyatini tushuntirish zarur. Mustaqillik to'g'risida bir tomonlama tasavvur hosil bo'lishidan saqlanish darkor.

- Darslarni o'tishda o'tailmiy yondashish, meyordan ortiq mutloqlashtirish yoki soddallashtirishga, "nasihatgo'ylikka" berilib ketishdan saqlanish kerak. Bu esa har bir muallimdan hayotni teran bilishi, yutuq va muammolarni xolisona tahlil qilishni talab etadi. Yutuq va muammolarni o'rganib, o'quvchilarning o'zini ularga javob topishga qiziqtirish, ularning muhokomalarida erkin ishtiroy etishini ta'minlash kerak. - Darslarda fikrlar xilma-xillagini erkinlashtirish jarayonlari demokratik hayot tarzining tarkibiy qismi ekanligini, shu bilan birga erkinlikning haqiqiy mohiyati uning ma'naviy chegaralari bilan belgilanishi o'quvchilar ongiga yetkazishga alohida e'tibor berishi zarur. Bu sohada eskicha tashviqot va targ'ibot tamoyillarini qo'llash, sayoz fikr va siyqasi chiqgan misollardan foydalanish yo'lidan mutlaqo voz kechish lozim. IPT metodi – ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'z aro faolligini oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirishga va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. IPT metodlarni qo'llash dars



samaradorligini oshirishga yordam beradi. IPT ta’limning asosiy mezonlari: norasmiy bahsmunozaralar, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar soni kamligi, lekin amaliy mashg‘ulotlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruhlari shular jumlasidandir. Shu bilan birga katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta’lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. a samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tarix o‘qitish metodikasi Uslubiyqo’llanma Toshkent 2018
2. Interfaol metodlar. Metodik qo’llanma. D.Ro’ziyeva, M. Usmonboyeva, Z. Xoliqova. Toshkent -2013
3. www.ziyouz.com kutubxonasi.



XVI-XIX ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI

Matyoqubova Sohiba Hayitbayevna
Hazorasp tumanidagi 19-maktab
tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shayboniyarning o'zbek tarixida tutgan o'rni haqida so'z boradi. XVI-XIX asrlarda Shayboniyarning davlat tepasiga o'tirgan shaxslari haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: Shayboniyalar davlati, Otalik, pul islohoti, Ashtarkoniylar, boshqaruv apparati.

Temuriylarga tegishli erlarni zabit etish natijasida Shayboniyalar davlati vujudga keldi. Dastlabki davrlarda Shayboniyalar davlati ancha keng xududlarni kamrab olgan edi. Movorounnaxr uning uzagini tashqil qilgan. Uning tarkibiga Xorazm, Sirdaryo soxilidagi shaxarlar, Toshkent va uning atrofidagi xamda Turkmanistonning Marv shaxrigacha bulgan xududlar kirgan.

Shayboniyalar davlatida eng oliy davlat idorasini dargox xisoblangan. Uning tepasida oliy xukmdorxon turgan. Oliy xukmronlik otadan bolaga emas, balki suloladagi eng ulug namoyondaga o'tgan. Keyinchalik bu an'ana oilaviy taxt vorisligiga o'tgan. Dargoxda xondan keyin sardor to'rgan. U xonning eng ishonchli va yaqin kishisi xisoblangan va davlatning ichki va tashki siyosatiga, xarbiy masalalarda xonning eng yakin maslaxatchisi bulgan. Farmon va yorliklarda sardorning ismi birinchi qayd qilingan. Yuqori mansablardan biri bu Otalik bo'lib, u xokimiyatning joylardagi siyosatini belgilashda katta nufuzga ega bulgan. Xonning chikargan xukmini, yorlik va boshqa rasmiy xujjatlarni uz egalariga etkazishda parvonachi javobgar edi. Shuningdek, dargoxda dodxox, kukaldosh, yasovul, eshik oga boshi, shayxulislom kabi lavozimlar xam bulgan. Shayboniy xonlari davlat xududidagi shaxar, tumanlarni uz karindosh – uruglari urtasida taksimlab, udel boshqaruv tizimini joriy qilganlar. Udel bekliklari mustaqil siyosat yuritishga intilgan.

Shayboniyxon markaziy xokimiyatni kuchaytirishga intilgan markaziy xokimiyatning kuchayuvi o'zaro feudal urushlarning kamayishiga, ijtimoiy-iqlitsodiy xayotning o'nglanishiga olib kelgan. Mamlakat iqtisodiyotini tartibga solish va savdoni jonlantirish maqsadida Shayboniyxon pul isloxi o'tkazdi. Bu markaziy xokimiyatning siyosiy va iqtisodiy mavkeini kuchaytirishga va maxalliy xokimlar rolining zaiflashuviga olib keldi. Biroq bu jarayon uzok davom etmadidi. Xar bir maxalliy xokim mustaqil bulishni istardi va ular xam uz pullarini zarb qilishdan manfaatdor edilar. Davlat mustaqil bekliklarga bo'linib ketish yillarda bu tendentsiya kuchaydi va markaziy xokimiyatning zaiflashuviga olib keldi.

1601 yilda xokimiyat tepasiga Ashtarkoniylar keldilar. Bu paytda mamlakatda feudal tarqoqlik avj olgan edi. Ashtarkoniylar feudal tarqoqlik va o'zaro feudal urushlarni tuxtata olmadilar. XVII asr boshlarida o'zbek urug' va kabilalarining soni 92 ta edi. Ularning xar biri uziga mustaqil edi. Xonlar bu o'zbek kabilalariga qaram edilar. Bu paytda Buxoroda-Mangitlar, Xorazmda-Qo'ngirotlar, Fargonada-Minglar, Shaxrisabzda-Kenagaslar xukmron mavkeni egallagan edi. Kaysi kabilaning mavkei yuqori bo'lsa, shu kabila vakillari markaziy xokimiyatdagi asosiy lavozimlarni egallagan. Shu tariqa xalq va davlat talon-taroj qiluvchi va malakatni xarob qiluvchi boshqaruv apparati tarkib topgan. Mamlakatdagi katta-katta yerlar bu mansabdorlarga va diniy peshvolarga in'om qilib berilgan. Ashtarkoniylar davrida soliqlarning qirqqa yaqin turi joriy qilingan. Bu xol xalqni uta qashshoqlanishiga olib keldi.

Ashtarkoniylar davlatining eng ojiz tomoni-ulardan muntazam armiya bo'limgan. Xon armiyasi asosan kabilalar lashkarlaridan tashkil topgan. Bu xolat mamlakatning zil ketishiga va parchalanishiga olib keldi. Ashtarkoniylar davri Markaziy Osiyoda markazlashgan davlatning inqirozga yuz tutishi va bir necha bo'laklarga bo'linib ketishi bilan izohlanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov B. O'zbek ulusi. T., Nur, 1992 y.
2. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. T., «O'qituvchi». 1994 y.
3. O'zbekiston xalqlari tarixi. 2-jild. T., «Fan», 1992 y.



BUGUNGI TA'LIM, ERTANGI KELAJAK SARI

Markaboyeva Xolida Sultonbekovna

Sirdaryo viloyati Bayovut umani
39-umumta'lif maktabi tarix fani o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasi, milliy tarbiya, ma'rifat, sharq mutaffakirlari merosida barkamol avlod tarbiyasining mazmun va mohiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, milliy tarbiya, odob-axloq .

Vatanimiz mustaqil davlat sifatida taraqqiyot yo'liga kirib, milliy tiklanishdan milliy yuksalish taraqqiyotiga o'tib, "jaholatga qarshi ma'rifat", degan ezgu g'oya asosida tobora shaxdam qadamlar bilan dunyo hamjamiyatida o'z o'rnni topib bormoqda. Ayni vaqtda, mamlakatimizda ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ko'plab islohatlar amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan islohatlarning barchasi inson va uning manfaatlari, qolaversa kelajagimiz ,bo'lgan yoshlarga qaratilgan. Biroq, "aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzlusiz ma'naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish" dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zlarining qator ma'ruzalarida yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berib, yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma'suliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsin fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish lozimligini ta'kidlab kelmoqdalar. Ayniqsa, Prezidentimizning Oliy majlisga qilgan murojaatnomalarida "Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida, men yurtimizda 2020-yilga "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlanterish yili", nomini berishni taklif etaman" deb ta'kidladilar.

Bu maqsadni amalga oshirishda ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi va milliy tarbiyaning roli beqiyosdir. Sharq mutafakkirlarining asarlarida barkamol insonni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berilgan. Jumladan, ma'rifat va fazilat sohibi bo'lgan Al Hakim at Termiziyy: "besh kimsani besh narsa tarbiyalashini alohida ta'kidlaydi, ya'ni bolalarni tuzaluvi, tarbiyasi maktablarda; qaroqchilarning tuzaluvi, tarbiyasi-qamoqxonalarda; ayollarniki uylarida; yoshlarniki ilmda, keksalarniki esa masjidlardadir". Ushbu hikmat asrlar osha hayot sinovidan o'tib, bugungi ustoz va murabbiylarning asosiy vazifalaridandir.

Ma'lumki, o'zbek xalqining etnopedagogikasi umuminsoniy va milliy tarbiyaning qudratli omilidir. Qadimdan turkiy xalqlar o'z bolalarini uy-ro'zg'or mehnatiga o'rgatishga alohida e'tibor bergenlar, o'zbek xalq pedagogikasida bolalarga "Kimki yaxshi mehnat qilsa, bejirim buyum tayyorlasa, u mahoratli usta", degan g'oya singdirilgan. Bunday tarbiya jarayonida : "Avval bil, keyin qil", "Avval o'rgan, keyin o'rgat", "Aql ko'pga yetkazar, hunar-ko'kka", "Ustozsiz shogird -jonsiz kesak", "Ustoz ko'rmagan shogird -har maqomga yo'rg'alar" kabi maqollarning ahamiyati katta bo'lgan. Eng qadimdagи yozma yodgorligimiz hisoblangan "Avesto"da ham, "Suvni bulg'ama", "Suvga tupurma" kabi o'g'it va hikmatli so'zlar yoshlarga milliy tarbiya, odob-axloq fazilatlarini singdirishda dastur vazifasini bajaradi.

O'zbek – azaldan bolajon xalq. Har birimiz farzandlarimizning buyuk ajdodlarimiz singari olamga mashhur insonlar yetishmog'ini chin yurakdan istaymiz. Ularning yorqin kelajagi yo'lida har qanday mushkulotlarga ko'ksimizni tutamiz. Biroq bugungi kunda jondan aziz farzandining boshqa tilli maktablarda tahsil olishini istayotganlar ham kam emas. Olamshumul maqsadlar yo'lidiagi bu urinishlar balki muayyan ma'noda o'zini oqlar, ammo o'z ona tilini qoyillatib o'rganmagan, ta'bir joiz bo'lsa, so'zlarimiz sehrini his qilmagan, o'zaro aytib turgan gapining teng yarmini esa boshqa tildagi "olifta so'zlar" egallagan yoshlarning yutuqlari bizning milliy ravnaqimizga ulush bo'lib qo'shila olarmikan?!

Xayriyatki, diqqatimiz markazida ancha olislab ketgan o'z tilimizga munosabat ancha masalasi bugun yana kun tartibiga ko'tarildi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbuskorligi ostida o'zbek tiliga bo'lgan e'tiborimiz yanada jonlanmoqda. 2019-yilning 21



oktyabr kuni ziyolilar ishtirokida bo’lib o’tgan katta anjumanda davlatimiz rahbari tilimizning mavqeい haqida: “Dunyodagi qadimiylar boy tillardan biri bo’lgan o’zbek tili xalqimiz uchun milliy o’zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir”, deya ta’kidladi.

Xulosa qilib aytganda ta’lim - tarbiya jarayonida farzandlarimizga buyuk allomalarimizning o’gitlarini kengroq o’rgatishimiz va mustaqil dunyoqarash konsepsiyasiga ega bo’lgan, o’z tiliga, millatiga hurmat ruhida tarbiyalangan o’quvchilarni kamol toptirish bugungi vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi:// “Xalq so’zi” gazetasi. 2020.25-yanvar, -№ 19(7521)-son
2. Shavkat Mirziyoyevning xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag’ishlangan videoselektor yig’ilishidagi nutqi. 2019-yil 23-avgust
3. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston Yohud axloq” – T. 2008-yil
4. Xudoyqulov X.J. Odob – axloq durdonalari. –T.: TTYMI, 2010.



**XIX ASRNING OXIRGI CHORAGI – XX ASR BOSHIDA ROSSIYANING TASHQI
SAVDOSI (BUYUK BRITANIYAGA EKSPORT MISOLIDA)**

Xolliyev Azizbek Go'zalovich
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti

Annotasiya: Ushbu maqolada XIX asrning oxirgi choragi – XX asr boshida Rossiya tashqi savdosining rivojlanishi tarixiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan, va unda Buyuk Britaniyaga mahsulotlarni eksport qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Rossiyadan Buyuk Britaniyaga eksportni amalga oshirish davomida erishilgan natijalar va mavjud bo'lgan muammolar atroficha tahlili qilingan.

Kalit so'zlar: Rossiya, tashqi savdo, Buyuk Britaniya, eksport, mahsulot, ko'rsatkich, savdo aylanmasi, daromad.

Abstract: This article examines the development of Russian foreign trade in the last quarter of the 19th century - the beginning of the 20th century from a historical point of view, and it focuses on the export of products to Great Britain. The results achieved during the export from Russia to Great Britain and existing problems were thoroughly analyzed.

Key words: Russia, foreign trade, Great Britain, export, product, indicator, trade turnover, income.

Rossiya - Buyuk Britaniya savdosining rivojlanishi Rossiya tashqi iqtisodiy aloqalari umumiy majmuasida muhim o'rinni tutdi.

Yevropa mamlakatlari XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyaning tashqi savdosidagi asosiy sheriklari bo'lib qolaverdi [3, b.25].

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, XIX asrning so'nggi choragi – XX asr boshida tovarlar eksporti ularning importidan oshib ketganligi tufayli, Rossiyaning tashqi savdodan tushadigan daromadlarning doimiy ko'payib borish tendensiyasi ko'zga tashlanardi.

Misol uchun, agar besh yilliklarni oladigan bo'lsak, u holda XIX asrning oxirgi choragida Rossiyaning Buyuk Britaniya bilan savdosida eksportning importga nisbatan ustunligi miqdori quyidagicha edi: 1876-1880 yy. - 9,5 mln. rub., 1881-1885 yy. - 55,6 mln. rub., 1886-1890 yy. - 238,5 mln. rub., 1891-1895 yy. - 157,9 mln. rub., 1896-1900 yy. - 90,9 mln. rub. [10, b.27]

Rossiya jahon don bozorining shakllanishida muhim rol o'ynardi. Rossiya bug'doyi G'arbiy Yevropaning barcha davlatlariga eksport qilinardi, ammo Buyuk Britaniya asosiy iste'molchi bo'lib qolaverdi. XIX asrning oxirgi choragi - XX asr boshida Rossiya doni eksportining ko'rsatkichlari quyidagicha edi: 1875 y. - 48,95%, 1900 y. - 42,8%, 1913 y. - 39,1% [12, b.45].

Rossiya qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tobora ko'proq ulushi jahon bozoriga olib chiqilardi. 1870-yillar oxiri - 1880-yillar boshida G'arbiy Yevropaga import qilinadigan donning muhim qismini Rossiya ta'minlardi [4, b.40].

Faqatgina 1880 yilning o'zidayoq Buyuk Britaniyaga quyidagilar eksport qilindi: bug'doy - 30,5 mln. rub., javdar - 6,7 mln. rub., arpa - 5,6 mln. rub., suli - 18,9 mln. rub., makkajo'xori - 3,3 mln. rub. [5, b.112-113].

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshida Rossiyadan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini olib chiqarishda va umuman barcha eksportda don eksportining ustunligi davom etdi. Ayniqsa, g'alla eksportining tez o'sishi XIX asr 70-yillarning boshidan kuzatildi. Biroq, bu o'sish notekis ro'y berdi. U eksportning pasayish davrlari bilan tavsiflandi [12, b.46].

O'rtacha olganda, 1886-1890 yillarni qamrab oluvchi besh yil davomida Rossiyadan tovarlarni eksport qilishda Buyuk Britaniyaning ulushi 34,7%ga teng bo'ldi. Rossiyaning ushbu besh yillikda o'rtacha 963 mln. rublni tashkil qilgan umumiy tashqi tovar aylanmasida esa Buyuk Britaniya bilan savdoning ulushi 31,7%ga teng bo'ldi [11, b.198].

S.Gulishambarovning yozishchicha, 1871-1880-yillarda rus tovarlarining Buyuk Britaniyaga eksporti yiliga o'rtacha 161,7 mln. rub., 1881-1890 yillarda esa - 198,4 mln. rub. tashkil qildi [1, b.67].

Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, 1881-1891 yillarda Rossiya imperiyasining Buyuk Britaniyaga eksportining o'rtacha miqdori ko'rsatkichlari 226,1 mln. rublga yetdi. [7, 46-bet]

1893 yil 21 oktyabrdagi tuzilgan Rossiya-Fransiya savdo konvensiyasi ham Rossiya-Britaniya savdosiga ijobjiy ta'sir ko'rsatdi. Sababi shunda ediki, Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasida savdo



shartnomasi tuzilgan bo'lib, rus-fransuz bitimida nazarda tutilgan shartlar avtomatik ravishda Rossiya-Buyuk Britaniya savdosiga nisbatan qo'llanilardi. Bu shartlar 1890-yillarning birinchi yarmida Rossiyaning umumiy tashqi savdo aylanmasida ulushi 25,08% (eksport - 26,21%)ni tashkil etgan Buyuk Britaniyaga birinchi o'rinni egallah imkonini berdi [9, b.21].

1896-1898 yillarda Buyuk Britaniyaning Rossiya tashqi savdosidagi ulushi Rossiya eksportining 19%ni tashkil etdi. Bunday holatda Buyuk Britaniya Germaniyaga peshqadamlilikni boy berdi (Germaniyaning ko'rsatkichlari 32%ni tashkil etdi) [10, b.28].

Buyuk Britaniyaga eksport qilinadigan rus marganets rudasini qiymati ko'rsatkichlarining dinamikasi quyidagicha edi: 1891 y. - 158 ming f. st., 1892 y. - 163 ming f. st., 1893 y. - 176 ming f. st., 1894 y. - 147 ming f. st., 1895 y. - 145 ming f. st. [1, b.71]. Rossiya 1898 yilda 241.935 tonna marganets rudasini chet elga eksport qildi, shundan 33% Buyuk Britaniyaga to'g'ri keldi [10, b.33].

1891 yilda Rossiya neft mahsulotlarining Buyuk Britaniyaga amalga oshirgan eksport qiymati 785 ming f. st. tashkil etdi, 1892 yilda - 540 ming f. st., 1893 yilda - 525 ming f. st., 1894 yilda - 347 ming f. st., 1895 yilda - 635 ming f. st. [1, 71-bet]

Rossiyadan Buyuk Britaniyaga neft va neft mahsulotlarini yetkazib berish dinamikasini quyidagi raqamlardan ko'rish mumkin: 1904 y. – 32.473 ming pud (1 pud = 16,4 kg.), 1905 y. – 16.825 ming pud, 1906 – 9.548 ming pud, 1907 – 9.669 ming pud, 1908 – 8.571 ming pud, 1909 – 6.719 ming pud, 1910 – 10.548 ming pud, 19010 – 10.548 ming pud, 1913 yil – 10.875 ming pud [8, b.14-28].

Zig'ir eksporti an'anaviy ravishda xorijiy davlatlar bilan savdoda muhim rol o'ynadi. Agar 1882 yilda Buyuk Britaniyaga 3.381 ming pud zig'ir yetkazib berilgan bo'lsa [6, b.6-7], 1886-1890 yy. esa o'rtacha 4.086 ming pud eksport qilindi. [11, b.199]

Rossiya zig'ir ishlab chiqaruvchi sifatida dunyoda yetakchilik qildi. 1909-1913 yillarda jahon miqyosidagi zig'ir tołasi hosilining 78,2% Rossiyaga to'g'ri kelardi [2, b.71]. Rossiya, o'stirilgan zig'irning beshdan bir qismini qayta ishlab, uni Buyuk Britaniya, Belgiya, Fransiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarga eksport qilardi. Agar besh yilliklarni olsak, 1904-1908 yillarda. Buyuk Britaniyaga o'rtacha 3.833 ming pud zig'ir eksport qilindi, 1909-1913 yillarda esa – 4.704 ming pud. [8, b.21]

Buyuk Britaniya XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshida rus yog'ochining asosiy iste'molchisiga aylandi. Bu holat Rossiya uchun juda qulay edi, chunki Buyuk Britaniya asosan yumaloq yog'ochni (xodani) emas, balki qayta ishlangan yog'ochni import qilgan [10, b.31]. Rossiyadan yog'och asosan Buyuk Britaniyaga kemasozlik ehtiyojlari uchun eksport qilindi.

Qurilish materiali sifatida temir va tosh, yoqilg'i sifatida ko'mir va neft keng qo'llanilishiga qaramay, yog'ochning ahamiyati tobora ortib bormoqda edi. Buyuk Britaniya kabi davlatlar Rossiyadan yog'och (pilomaterial) va o'tinni ham olib turardi. 1909-1913 yillarda yog'och eksportining 50% dan ortig'i Rossiyadan Buyuk Britaniyaga yuborildi [2, b.73]. Shunday qilib, faqat 1912 yilda Buyuk Britaniyaga 61.941 ming rublga teng miqdorda 172.863 ming pud yog'och materiallari eksport qilindi [8, b.20].

Rossiya, XIX asrning oxiriga kelib, shakar eksportining yillik hajmini sezilarli darajada oshirdi. Rossiya shakari asosan Buyuk Britaniya, Eron, Germaniya va Italiyaga sotilgan. Shakar eksporti Rossiya eksport daromadlarining muhim qismini ta'minlardi. 1886-1890 yillarda Rossiyadan Buyuk Britaniyaga 1,739 ming pud shakar eksport qilindi. [11, b.199].

Rossiya eksportining muhim tovarlaridan biri mo'yna edi. Mo'ynali mahsulotlarning asosiy bozorlaridan biri London bo'lib, u yerda rus savdogarlar o'zlarining omborlari va agentlarga ega edilar. Rus mo'ynasining birinchi auksioni (kimoshdi savdosi) 1889 yilda Londonda "Lamson & Co" firmasi tomonidan o'tkazildi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlida rus mo'ynalarining eksport ko'rsatkichlari, pasayish davrlari bo'lsa-da, umuman olganda, o'sib bordi. 1897 yilda Buyuk Britaniyaga 1.060 ming rub., 1907 yilda esa 3161 ming rubllik mo'yna eksport qilindi. [7, b.14-15; 8, b.22]

Foydalilanlgan manbalar va adabiyotlar:

- Гулишамбаров С.О. Всемирная торговля в XIX в. и участие в ней России. - СПб.: тип. Б. Киршбаума, 1898.
- Иванов К.Е. Внешнеэкономические связи Российской империи в конце XIX - начале XX в.// Экономика и управление. №11 (121), 2015.



3. История внешней политики России. Вторая половина XIX века (от Парижского мира 1856 г. до русско-французского союза). -М.: Академический проект; Парадигма. 2018.
4. Китанина Т.М. Хлебная торговля России в 1875-1914 гг. (очерки правительенной политики). –Л.: Наука. 1978.
5. Обзор внешней торговли России по европейской и азиатской границам за 1880 г. -СПб.: Типография В. Киршаума. 1881.
6. Обзор внешней торговли России по европейской и азиатской границам за 1882 г. -СПб.: Типография В. Киршаума. 1883. Таб. III
7. Обзор внешней торговли России по европейской и азиатской границам за 1897 год. -СПб.: Типография М.П. Фроловой. 1899.
8. Обзор внешней торговли России по европейской и азиатской границам за 1915 год. Ч.1. –Пг.: Типография М.П. Фроловой, 1917.
9. Покровский В.И. Краткий очерк внешней торговли и таможенных доходов России за 1894. -СПб.: Типография Исидора Гольдберга, 1896.
10. Томпston C.P. Российская внешняя торговля XIX - начала XX в.: организация и финансирование. / пер. с англ. Ю.А.Петрова. –М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН). 2008.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиши муддати: 31.08.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000